

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSC.13/30.12.2019.T.07.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RIZAYEVA SANOBAR DAVLATALIYEVNA

**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV
JARAYONINI INDIVIDUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AFTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Rizayeva Sanobar Davlataliyevna

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish metodikasi..... 5

Ризаева Санобар Давлаталиевна

Методика совершенствования процесса обучения в педагогических вузах на основе индивидуальных технологий обучения 23

Rizayeva Sanobar Davlataliyevna

Pedagogy is a method of improving the educational process in higher education institutions based on individual educational technologies 45

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSC.13/30.12.2019.T.07.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RIZAYEVA SANOBAR DAVLATALIYEVNA

**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV
JARAYONINI INDIVIDUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AFTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped5118 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tuit.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedjanov Dilmurod G'ulomovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yakubboyeva Nafisa Saxobiddinovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zaripova Dilnoza Anvarovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi Dsc.13/30.12.2019.t.07.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "___" _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100202, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43; faks: (99871)238-65-52; e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan).
Manzil: 100202, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.:(99871)238-65-44

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil "___" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M.Musaev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d, professor

E.Sh.Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d, professor

Dj.B.Sultonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi,
t.f.d, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sifatli ta'lim berish, ta'lim olishni yaxshilash va o'zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirishda individual ta'lim texnologiyalaridan foydalanilmoqda. YUNESKOning 2023-yilgi Butunjahon Ta'lim Forumi yakunlarida raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan globallashtirish va axborotlashtirish jarayonlari ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlandi ¹. Bu esa individual ta'lim texnologiyalariga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshirdi. Mazkur yondashuv ta'limni demokratlashtirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda keng ko'lamli professional imkoniyatlarga ega, zamonaviy, raqobatbardosh va tezkor o'zgaruvchilarga moslashgan mutaxassislar tayyorlash jarayoniga alohida e'tibor qaratilishini taqozo etmoqda.

Jahon pedagogik tajribasida o'quv jarayonini individual yondashuv asosida amalga oshirish talabalarning individual xususiyatlarini akmeologik darajada hisobga olish, ularni o'quv-biluv faoliyati hamda tarbiyasi, qiziqishlari va qobiliyatini rivojlantirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida ta'lim samaradorligini oshirishning istiqbolli usullaridan biri ekanligi o'z isbotini topgan. Zero, zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi innovatsion texnologiyalar asosida har bir talaba shaxsining qobiliyatini ochib berish, kasbiy faoliyatga tayyorlash, raqobatbardosh kadrlarni dunyo maydoniga chiqarishdan iboratdir. Shuningdek, har bir talabani o'z oldiga mustaqil ravishda aqlli (SMART) maqsadlarni qo'yishi va ularga erishishi, turli xil kasbiy vaziyatlarga mohirona javob berishi uchun tayyorlash kerak. Bu esa o'quv jarayonida individual ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Ayni vaqtda dunyo miqyosida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning eng ilg'or texnologiyalarini qo'llash, individual ta'lim texnologiyalaridan o'quv vositasi sifatida foydalanish bo'yicha dasturiy va metodik ta'minotlarni shakllantirish vazifalari muhim pedagogik muammo bo'lib kelmoqda. Bu muammoni hal etish nafaqat o'qituvchilardan pedagogik faoliyatda individual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tashkiliy sa'y-harakatlarni, balki oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga individual ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish mexanizmlari, shakl va usullarini joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, individual ta'lim texnologiyalari va ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Yurtimizdagi pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning individual ta'lim ehtiyojlarini, shuningdek, o'quv materialini o'rganish sur'atini hisobga olgan holda ta'limning moslashuvchanligini oshirish orqali ularning ta'limiy imkoniyatlarini kengaytirish, talabning motivatsiyasini, mustaqilligini, ijtimoiy faolligini oshirish, talabning faol pozitsiyasini

¹ <https://www.unesco.org/en/articles/education-world-forum-2023-unesco-mobilizes-ministers-greening-education-and-digital-transformation>

shakllantirishni rag'batlantirish va buning natijasida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'qituvchi uslubini o'zgartirish: bilimlarni uzatishdan talabning o'z bilimlarini qurishga hissa qo'shadigan talaba bilan interfaol o'zaro munosabatlarga o'tish, ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabalarda tanqidiy fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini, ya'ni axborot bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-avgustdagi PQ-357-son "2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qonuni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi 556-son "Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy–ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, U.Sh.Begimqulov, F.M.Zakirova, M.X.Lutfillaev, N.I.Taylakov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan; ta'lim jarayoniga individual va differensial yondashuv texnologiyasini tatbiq etish M.Z.Xaydarova, L.R.Rajabova, R.Z.Xayrov va boshqa olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan; individuallashtirish darajalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individual ta'lim trayektoriyalari hamda o'quv jarayoniga individual ta'limni tatbiq etish masalalari bo'yicha respublikamizda A.A.Ibragimov, O.M.Mallayeva, J.E.O'sarov, M.F.Qurbonova va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida muayyan darajada yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari V.P.Vaxterov, V.V.Zenkovskiy, N.K.Krupskaya, A.V.Lunacharskiy, E.S.Rabunskiy, A.S.Granitskaya, V.D.Shadrikov va boshqalar tomonidan ta'limni individuallashtirish texnologiyasi bilan bir qatorda, shaxsni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy masalalarini o'rganish bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borilgan; individual ta'lim trayektoriyasi va uni samarali tashkil etish bilan bog'liq masalalar I.S.Yakimanskaya, A.V.Xutorskiy, E.A.Aleksandrova,

T.P.Korostiyanes, O.A.Isakova, N.N.Surtayeva va boshqa olimlar tomonidan keng o'rganilgan, ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan; individual ta'lim konsepsiyasi masalalarini turli jabhalarda qo'llash dolzarbligi T.M. Kovalenko, E.Yu.Berlizova, G.K.Selevko, A.A.Kirsanov va boshqalarning ishlarida talqin qilingan.

Ta'lim faoliyatini individuallashtirish, o'quv jarayonida individual ta'lim texnologiyalarni qo'llash muammolari xorijiy olimlar K. Freyne, I.E.Unt, J.Hattie, D.R.Garrison, N.D.Vaughan, C.A.Tomlinson va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yoritilgan.

Tahlillarga ko'ra, pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish, shuningdek, individual ta'lim asosida elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetining Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Universitet ta'lim jarayoniga individual yondashuv texnologiyalarini tatbiq etish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi individual ta'lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adabiyotlar tahliliga tayangan holda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni individual ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish modelini ishlab chiqish;

pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini avtomatik aniqlovchi vositasini takomillashtirish;

individual va mobil ta'lim texnologiyalari asosida informatikaning nazariy asoslari fanining o'quv jarayonini baholash darajasi va mezonlarini aniqlash hamda tajriba-sinov ishlarini o'tkazish.

Tadqiqot obyekti sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat pedagogika institutiti va Qo'qon davlat pedagogika institutlarining 327 nafar talabalarini ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga oid adabiyotlarni o'rganish, fanni o'qitish jarayonini kuzatish, qiyosiy tahlil etish, ta'limiy mobil ilova orqali nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish, testlar va topshiriqlarni bajarish, suhbat va

tajriba - sinov ma'lumotlarini qayta ishlashda matematika-statistika usullari, natijalarni grafik tasvirlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pedagogika oliy talim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishning didaktik imkoniyatlari ta'lim jarayonini faollashtiruvchi raqamli va innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash va o'z-o'zini regulyatsiya qilish kompetensiyalarini shakllantirish kabi xususiyatlar individual ta'lim kontenti, individual ta'lim darajalari va individual ta'lim trayektoriyalarini tizimli va intensiv joriy etish asosida aniqlashtirilgan;

individual ta'lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish modeli pedagogik-texnologik uzviy aloqadorlikka asoslangan mazmunli va o'quv jarayoni komponentlari asosida takomillashtirilgan;

aralash mobil ta'lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy talim muassasalari talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini avtomatik aniqlovchi "Individual Study" mobil ilovasi differensial ta'lim yondashuviga ko'ra "GROW" va "SAMR" ta'lim modellarini perspektiv darajasini izchilligi va uzviyligiga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

individual ta'lim texnologiyalari asosida "Informatikaning nazariy asoslari" fanini mobil ilova yordamida o'qitish samaradorligini baholash mezonlari motivatsion, texnologik va faoliyatli ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan nafaol talaba, standart-uslubchi talaba va tadqiqotchi talaba darajalarini parametr va indikatorlarining miqdor va sifat aspektlari mazmunan optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirishda aralash mobil ta'lim texnologiyasiga "Differensial ta'lim", "GROW" va "SAMR" ta'lim modellarini integratsiyalash asosida amaliyotga joriy etish orqali erishish, o'quv jarayonida zarur pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida ilmiy-metodik ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Informatikaning nazariy asoslari" fani o'quv jarayoni samaradorligini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish, talabalar bilim darajasini aniqlashda, onlayn testlar, didaktik materiallar bilan ta'minlash, metodik yordam ko'rsatish maqsadida ta'limiy mobil ilova(Guvohnoma № DGU 32652) yaratildi va amaliyotga joriy etildi.

Matematika va informatika bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Informatikaning nazariy asoslari", "Amaliy dasturlar paketi" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-metodik anjuman materiallari to'plami, Oliy Attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr qilingan o'quv qo'llanmalar, respondentlar bilan o'tkazilgan savol-javob, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiqi, tajriba-sinov ishlari tahlili va samaradorligi matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi,

mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi yuzasidan berilgan xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari aniqlanganligi, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Informatikaning nazariy asoslari" fanining o'quv jarayoni samaradorligini takomillashtirishning nazariy-metodologik, dasturiy va uslubiy ta'minoti hamda metodik shart-sharoitlarning ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish maqsadida "Informatikaning nazariy asoslari" fani va oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilari o'rtasida aloqani kuchaytirish, fan yuzasidan tajriba almashish, talabalar bilim darajasini aniqlashda, onlayn testlar, didaktik materiallar bilan ta'minlash, metodik yordam ko'rsatish maqsadida "Individual Study" ta'limiy mobil ilovasi (Guvohnoma № DGU 32652) yaratilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishning didaktik imkoniyatlari o'quv muhitini individuallik, differensiallik, ko'rgazmalilik va natijaviylik tamoyillari asosida ta'lim olish imkonini taqdim etuvchi va interfoal metodlarni an'anaviy va masofaviy ta'lim integratsiyasi muhitiga intensiv joriy etishga oid takliflari "Informatikaning nazariy asoslari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 429-son buyrug'i bilan berilgan 429-95-son guvohnoma). Natijada, ta'lim jarayonlarining portal texnologiyalariga asoslangan axborot-metodik ta'minoti va milliy o'quv-ilmiy resurslarni ishlab chiqish sifati oshirilgan;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish modeli vizual dizaynli ta'lim resurslarini axborotni qayta ishlash jarayonida differensial adaptatsiyada qo'llashga oid takliflari asosida "Amaliy dasturlar paketi" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug'i bilan berilgan 420808067784770547-son guvohnoma). Mazkur o'quv qo'llanmaning yaratilishi va joriy etilishi "Amaliy dasturlar paketi" fanining ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari tashkiliy-pedagogik bosqichi samaradorligini oshirishga, sohaga doir zamonaviy o'quv adabiyotlarga bo'lgan ehtiyoj qondirilishiga xizmat qilgan;

individual ta'lim texnologiyalari asosida "Informatikaning nazariy asoslari" fanini mobil ilova yordamida o'qitishning samaradorligini baholash mezonlari motivatsion, texnologik va faoliyatli ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan nafaol talaba, standart-uslubchi talaba va tadqiqotchi talaba darajalarini parametr va

indikatorlarining miqdor va sifat aspektlari mazmunan optimallashtirilgan va tajriba-sinov ishlarida uning samarali ekanligi olingan natijalar asosida isbotlangan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 19 dekabrda 02/01-01-150-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish metodikasini samarali tashkil etishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishda tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat bo'lib, asosiy matn 162 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish metodikasining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirishning nazariy asoslari, o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirishning jahon tajribalarini o'rganish va uni amaliyotga tatbiq etishning metodik jihatlari, shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida shakllantirish kabi masalalar yoritilgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida fan va axborot texnologiyalarining ilg'or yutuqlariga tayangan individual ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ushbu texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etish - talabalarga individual ehtiyoj va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta'limni taklif etish, ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi va faolligini kuchaytirish imkonini beradi.


I.E. Untning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra, individual ta'lim texnologiyasi - bu individual yondashuv tamoyilini amalga oshirish jarayoni bo'lib, u o'ziga xos shakl va uslublarga ega. M.N.Bulayeva esa bu texnologiyaning afzalliklari sifatida individual yondashuv, mustaqillik, moslashuvchanlik, differensial yondashuv,

zamonaviy texnologiyalar va baholash monitoringini ta'kidlab, ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishini qayd etadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida, individual ta'lim texnologiyalariga shunday ta'rif berdik: Individual ta'lim texnologiyalari aralash mobil ta'lim, individual ta'lim, differensial va mustaqil ta'lim elementlarini o'z ichiga olib, talabanning individual xususiyatlariga yo'naltirish, tegishli o'qitish usullarini tanlash va qo'llash, topshiriqlarning turli xil variantlari, mustaqil ta'lim topshiriqlarining darajalari asosida o'quv jarayonini loyihalashga yordam beradigan texnologiyadir.

Individual ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni faoliyatini tashkil etishning didaktik imkoniyati individual ta'lim kontenti(ITK), individual ta'lim darajalari(ITD) va individual ta'lim trayektoriyasini(ITT) o'z ichiga oladi. Aynan bugungi zamonaviy talabanning ta'lim faoliyatini rivojlantirishda talaba o'z-o'zini rivojlantirish uchun uning bosqichlarini belgilab olishi, ushbu faoliyat davomida qaysi ta'lim yo'nalishini rivojlantirishi juda muhimdir.

Ilmiy tadqiqot ishimizda ishlab chiqiladigan individual ta'lim trayektoriyalariga binoan talabalarni o'qitishni tashkil qilish masalasini hal qilishda kasb mahoratining shakllanish darajasini hamda pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining individual xususiyatlarining rivojlanish darajasini haqiqiy holatini ochib berishga yordam beradigan murakkab psixologik-pedagogik diagnostika ma'lumotlariga asoslanamiz. Talabanning individual ta'lim faoliyatini tashkil etishning rivojlanishi uchun quyidagilar zarur bo'ladi:



1-rasm. Talabanning individual ta'lim faoliyatini tashkil etish

Individual ta'lim texnologiyalari, bizningcha, o'quv jarayonini talabanning individual shaxsiy xususiyatlariga yo'naltirish, tegishli o'qitish usullarini tanlash va qo'llash, topshiriqlarning turli xil variantlari, mustaqil ishlarning darajalari asosida o'quv jarayonini loyihalash deb izohlaymiz.

Demak, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga individual ta'lim texnologiyalarini joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini mazmunan boyitish, vaqt resurslaridan samarali foydalanish, shuningdek, o'quv materiallarini ishlab chiqish, saqlash va taqdim etishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini individual ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini individual ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish modeli, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni samaradorligini individual ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish metodikasi, shuningdek, “Informatikaning nazariy asoslari” fanidan individual ta’lim texnologiyasi asosida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi bayon etilgan.


Zamonaviy ta’lim modellarining asosiy xususiyatlaridan foydalangan holda individual ta’lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish modeli quyidagi komponentlardan tashkil topgan: 1) maqsadli; 2) mazmunli; 3) faoliyatni amalga oshirish jarayoni; 4) natijaviy-baholovchi (2-rasm).

Model komponentlari aniq ketma-ketlikda bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, ushbu modelning maqsadli komponenti – individual ta’lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Mazmunli komponent o‘z ichiga ta’lim jarayonini tashkil etishda qo‘llaniladigan bosqichlar, yondoshuv va tamoyillarni qamrab olgan bo‘lib, unga ko‘ra biz o‘quv jarayonini tashkil etuvchi loyihalashtirish, bilimlarni tekshirish, amalga oshirish hamda nazorat qilish va baholash bosqichlardan foydalandik.

O‘quv jarayoni komponenti – ta’lim olish, o‘quv jarayonini va o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari, metod va vositalarining o‘zaro qo‘llanilish usullarini ta’minlaydi. “Informatikaning nazariy asoslari” fanini o‘qitishning didaktik tizimi sifatida, o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari – ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim, metodlar sifatida –debat ma’ruza, ierarxik diagramma, assesment, loyiha, Think-Pair-Share, A, V, C dasturi va boshqa metodlar belgilab olindi. “Informatikaning nazariy asoslari” fanini ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlari aralash mobil ta’lim texnologiyalari asosida differensial ta’lim yondashuviga asoslanib, GROW va SAMR ta’lim modellarining perspektiv darajasini izchillik va uzviylik prinsiplariga ustuvorlik berish orqali tashkil etiladi, bu jarayonda turli darajadagi gomogen guruhlar uchun o‘qitish usullari, didaktik materiallar va o‘quv maqsadlari aniq belgilangan bo‘lib, talabalarning individual ta’lim trayektoriyalarini avtomatik aniqlovchi “Individual Study” mobil ilovasi yordamida ta’lim jarayoni samarali va individual moslashtirilgan tarzda boshqariladi.

Mustaqil ta’lim differensiallashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari: ‘A’, ‘V’, ‘S’ dasturlariga ko‘ra tayyorlangan topshiriqlar asosida tashkil etiladi. Mustaqil ta’limini tashkil etishda kreativlik usullaridan foydalangan holda, didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasiga qarab individual tartibda amalga oshiriladi. Dasturiy, texnik va metodik vositalar umumiy qo‘llaniladi.



2-rasm. Individual ta'lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish modeli

Unga ko‘ra talabalar har bir ma‘ruza mashg‘ulot oldidan o‘z bilimlarini tekshirib, uning natijasiga ko‘ra turli darajadagi gomogen guruhlar uchun o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan nazariy va amaliy materiallarni oldindan o‘rganadilar va mavzu bilan tanish holatda auditoriyaga kelishadi. Auditoriya vaqti o‘qituvchi bilan paydo bo‘lgan barcha savollarni saralashga va amaliy masalalarni hal qilishga va nazorat ishlarini bajarishda o‘zlarini sinab ko‘rishga bag‘ishlanadi. Qoida tariqasida, nazariy material talabalarga o‘qituvchi tomonidan yaratilgan illyustrativ dizaynli ta‘lim resurslari - turli xil video, taqdimotlar va mavzu hamda rejalar bankidan iborat elektron hujjat ko‘rinishida taqdim etiladi, ular muallif tomonidan yaratilgan Individual study mobil ilovasida joylashtirilgan, shuningdek talabalarda ushbu resurslarga kirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Muallif tomonidan yaratilgan Individual study mobil ilovasi barcha foydalanuvchilar uchun ochiq va Google Play onlayn dastur do‘konlaridan bepul yuklab olish mumkin.

Baholash komponenti baholash mezonlari, baholash usullari (neyron tarmoqlar usuli va avtomatlashtirilmagan) va baholash darajalarini o‘z ichiga oladi. Baholash komponenti talabalarning bilimlarini neyron tarmoqlar usuli yordamida ma‘lumotlarni qanday yaxshi o‘rganganliklarini tahlil qilish, talabalarning bilim darajasini nazorat qilish va o‘qitish usullarini innovatsion tarzda yangilash imkonini beradi, shuningdek, motivatsion, texnologik va faoliyatli mezonlari ostida a‘lo (yuqori), yaxshi (o‘rta), qoniqarli (quyi) va qoniqarsiz (past) baholar bilan qiyoslanadi.

Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini individual ta‘lim texnologiyalari asosida tashkil etish – bu ta‘lim oluvchining individual xususiyatlari, qobiliyati, motivatsiyasi va imkoniyatlarini hisobga olib, zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga asoslanadi. “Informatikaning nazariy asoslari” fanini o‘qitishda esa individual ta‘lim texnologiyalari differensiallashtirish, individuallashtirish, ko‘rgazmalilik, bilimlarni amaliy qo‘llash hamda natijalarni mustahkamlash tamoyillari asosida amalga oshirildi.

Biz, pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini individual ta‘lim texnologiyalari asosida tashkil etish mexanizmini quyidagi operatsion-texnologik bosqichlarga ajratib oldik:

- ✓ 1-bosqich. O‘quv faoliyatini loyixalash. Materiallarni to‘plash va tayyorlash
- ✓ 2-bosqich. Bilimlarni tekshirish.
- ✓ 3-bosqich. O‘quv faoliyatini bevosita amalga oshirish
- ✓ 4-bosqich. Talabalarning nazorat qilish va baholash.

Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini individual ta‘lim texnologiyalari asosida tashkil etishning **1-bosqichida** individual ta‘lim muhitida o‘quv faoliyatini loyihalashtirish ya‘ni fanning o‘quv dasturi va sillabusini ishlab chiqish va uning tarkibida ta‘lim natijalari, fan mazmuni, o‘qitish va o‘rganish usullari va talabalarni baholash rejalashtirildi hamda kurs materiallari ishlab chiqildi. Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini individual ta‘lim texnologiyalari muhitida loyihalashda qo‘llaniladigan asosiy tamoyil - bu pedagogik dizayndir. Pedagogik dizayn (ID - instructional design) – ta‘lim usullari va baholash

shakllarini tanlashdan oldin maqsadni belgilash orqali o'quv dasturini ishlab chiqish usuli hisoblanadi.


Individual ta'lim texnologiyalari asosida bilimlarni tekshirish deb nomlangan **2-bosqichda** talabalarning egallagan bilim va ko'nikmalarni tahlil qilish hamda har bir mavzu bo'yicha bilim darajasini tekshirish jarayoni mobil ta'lim texnologiyasida avtomatlashtirilgan holda aniqlab olindi.

Demak, ushbu bosqichda talabalar muallif tomonidan yaratilgan Individual Study (o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish mobil ta'lim ilovasi) mobil ilovasi yordamida ularni individual ta'lim trayektoriyalarini belgilab, bilimlarni tahlil qiluvchi kirish testi orqali "Informatikaning nazariy asoslari" fanidan o'quv dasturiga asoslanib tuzilgan test savollariga javob beriladi. Kirish testi natijalariga ko'ra talabalarni nofaol, standart-uslubchi va tadqiqotchi talaba toifalarga o'qitish tizimining qurama texnologiyasining muallifi N.P.Guzik tadqiqoti bo'yicha ajratdik. Bunda o'qituvchi talabalarning belgilangan tartibdagi nazorat topshiriqlari natijasiga ko'ra differensiallashtirish ishlarini tashkil etadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustahkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini individual ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etishning **3-bosqichi** ta'lim loyihasini amalga oshirishdir. Bu bosqichda o'quv faoliyatini tashkil etishda foydalaniladigan ta'lim modellari, ta'lim shakllari, ta'lim metodlari va ta'lim vositalari belgilab olindi.


Aralash mobil ta'lim texnologiyalari asosida pedagogika oliy talim muassasalari talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini avtomatik aniqlovchi "Individual Study" mobil ilovasi differensial ta'lim yondashuviga ko'ra "GROW" va "SAMR" ta'lim modellarini perspektiv darajasini izchilligi va uzviyligiga ustuvorlik berish orqali loyihalashda, o'zaro bog'langan elektron, auditoriya va mobil ilova komponentlari yordamida amalga oshiriladigan "auditoriyadan oldingi ta'lim - auditoriyadagi ta'lim - auditoriyada mobil ta'lim" sikli sifatida ifodaladik.

"Informatikaning nazariy asoslari" fanini o'qitishda "GROW" modelining to'rt bosqichli (Goal – maqsad, Reality – haqiqat, Options – imkoniyatlar, Will – harakat) tahliliy yondashuvi o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim metodik asos bo'lib, har bir talabaga mos ta'lim vazifalari va ko'rsatmalarni avtomatik ravishda taqdim etadi. Bu esa talabaning kognitiv rivojlanish darajasi, motivatsiyasi va o'zlashtirish sur'atlariga mos holda individuallashtirilgan ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. GROW modeli talaba bilan yakka tartibda yoki butun guruh bilan ham qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchi talabalarga o'quv maqsadlari haqidagi tasavvurlarini aniqlashtirishga yordam beradi, talaba esa bu maqsadlarga erishish muhimligini anglaydi (maqsad), so'ngra ushbu maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradigan yoki to'sqinlik qiladigan barcha omillarni tahlil qiladi (real holat), talabalarga maqsadga erishishning muqobil yo'llarini aniqlashda metodik ko'mak beradi (mavjud imkoniyatlar), talabalar bilan birgalikda o'z maqsadlariga erishish uchun aniq bosqichma-bosqich harakatlar rejasini va yutuqlarni monitoring qilish usullarini belgilaydi (harakatlar) (3-rasm).




3-rasm. GROW modeli asosida mobil ilova tuzilmasi

Ushbu yondashuv differensial ta'lim tamoyillari bilan uyg'un holda aralash mobil ta'lim texnologiyasi doirasida takomillashtirildi. Jumladan, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Individual Study" nomli mobil ilova yordamida talabalar individual ta'lim trayektoriyasini avtomatik aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ilova "GROW" modelining bosqichlari darajalariga izchillik va uzviylik bilan ustuvorlik berilgan holda loyihalashtirildi. Ta'lim jarayoni esa elektron, an'anaviy (auditoriya) va mobil komponentlar o'zaro integratsiyasiga asoslangan "auditoriyadan oldingi ta'lim – auditoriyadagi ta'lim – auditoriyada mobil ta'lim" sikli doirasida tashkil etilib, zamonaviy talablarga javob beruvchi, individuallashtirilgan ta'lim muhitini shakllantirish imkonini beradi.



4-rasm. Ma'ruza mashg'ulotlarni loyihalash

“Informatikaning nazariy asoslari” faninig amaliy mashg‘ulotlari aralash mobil ta’lim texnologiyasi doirasida SAMR modelining perspektiv darajasini izchilligi va uzviyligiga ustuvorlik berish orqali loyihalashtirildi.



5-rasm. Amaliy mashg‘ulotlarni loyihalash

Ilmiy ishimizda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini individual ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etishning **4-bosqichi** sifatida nazorat qilish va baholash tizimi ko‘zda tutilgan. Bu bosqich neyron tarmoq usullaridan foydalanish orqali tashkil etildi. Bu jarayonda testlar va topshiriqlarning


xususiyatlariga yangilik kiritilib, baholashda neyron tarmoqlar bazasida testlar javoblari va shartlari kiritilgan holda, sun'iy intellekt elementlari bilan boyitildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Pedagogika oliy ta’lim muassalarida o’quv jarayonini individual ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirishga oid tajriba- sinov ishlarini tashkil etish va o’tkazish”** deb nomlanib, dissertatsiya ishining mazkur bobi, pedagogika oliy ta’lim muassalarida individual ta’lim texnologiyalari asosida o’quv jarayonini takomillashtirish bo’yicha tajriba sinov ishlarini o’tkazish bosqichlari, hamda, pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahliliga bag’ishlangan.

Tajriba-sinovning birinchi (2021–2022 yy.) tashkiliy tayyorgarlik bosqichida tadqiqot ishiga oid ilmiy va metodik ishlar tahlil qilindi hamda tadqiqotning mavzusi, maqsadi va vazifalari aniqlashtirildi. Ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarning didaktik ta’minotiga oid turli darajadagi ma’ruza va amaliy mashg’ulotlari bo’yicha ishlanmalar hamda mustaqil ta’limda bajariladigan topshiriqlar ishlab chiqildi.

Tajriba-sinovning (2022–2023 yy.) shakllantiruvchi bosqichida individual ta’lim texnologiyalari asosida mobil ilovani yaratish vositalari va bosqichlari o’rganildi hamda “Informatikaning nazariy asoslari” fanidan foydalanishga mo’ljallangan Individual Study mobil ilovasi ishlab chiqildi. Individual ta’lim texnologiyasi asosida yaratilgan mobil ilovadan o’quv jarayonida foydalanish metodikasi tadqiq etilib, o’quv jarayonida qo’llanildi(6-rasm).

Individual Study mobil ilovasi foydalanuvchi tavsiflari (User Story), ilova bo’ylab foydalanuvchi harakati xaritasi (Customer Journey Map) va xizmatga texnik talablar asosida loyihalashtirildi.



6-rasm. Individual Study mobil ilovasining tarkibiy tuzilmasi

